



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 366 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalarida jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
<i>Niyozova Shahlo Abdusaitovna</i>	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
<i>Pulatova Dilfuza Baxramovna</i>	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
<i>Saidova Sumbuloy Otabayevna</i>	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
<i>Yunusova Dildora Hamrakulovna</i>	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
<i>Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi</i>	
Особенности иммунного статуса при аллергодерматозах у жителей ташкентской области.....	338
<i>Саипова Н. С., Абдуллаева Ф. Б.</i>	
Aqliy xaritalar va mnemotexnikani birlashtirib, bolalarning fikrlashini o'stirish.....	343
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
Математическое развитие по STEAM технологиям	349
<i>Садикова Д. Х.</i>	
Adaptive Trust-Aware Multi-Criteria Decision Method for Artificial Intelligence Systems: A Conceptual Framework and Mathematical Model	353
<i>Yuldashev Nodirbek Abdumannob o'g'li</i>	
Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalari rivojlanishiga ta'siri.....	360
<i>Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li</i>	



Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li
Samarqand davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

KONTRISUGGESTIV, TEZAURUS VA INTERAKSION OMILLARNING BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK LIDERLIK KOMPETENSIYALARI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

UDK: 378.147:159.923.2:811.111-051

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi uchta psixologik omil – kontrsuggestiv, tezaurus va interakSION omillar – alohida va o'zaro bog'liq tizim sifatida tadqiq etiladi. Har bir omilning mohiyati, pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'sir mexanizmi va rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan uchala omilning bir-birini kuchaytiruvchi integratsion tizimni tashkil etishi asoslanadi va EFL kontekstida ularning amaliy tatbiqi ko'rsatiladi. Lozanov, Zeyer, Yo'ldoshev, Shodmonova, Egamberdiyeva, Miftah kabi olimlarning ilmiy ishlari sintezlanib, O'zbekiston ta'lim kontekstiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kontrsuggestiv omillar, tezaurus, interakSION omillar, pedagogik liderlik kompetensiyalari, ingliz tili o'qituvchisi, psixologik to'siqlar, kasbiy rivojlanish.

Abstract: This article investigates three psychological factors – counter-suggestive, thesaurus-related, and interactional – affecting the development of pedagogical leadership competencies in future EFL teachers. The mechanism of each factor's influence is analysed, and an integrative model of their mutual reinforcement is proposed in the context of EFL teacher preparation.

Key words: counter-suggestive factors, thesaurus, interactional factors, pedagogical leadership competencies, EFL teacher, psychological barriers.

Аннотация: В данной статье исследуются три психологических фактора – контрсуггестивные, тезаурусные и интеракционные, – влияющие на развитие компетенций педагогического лидерства будущих учителей английского языка. Раскрыты механизмы воздействия каждого фактора, предложена интегративная модель их взаимного усиления в контексте подготовки учителей ИЯ.

Ключевые слова: контрсуггестивные факторы, тезаурус, интеракционные факторы, педагогическое лидерство, учитель английского языка.

KIRISH

Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda ikkita asosiy muammo mavjud: birinchisi – qanday metodlarni qo'llash kerakligi (bu metodologik muammo), ikkinchisi – ana shu metodlarni qo'llashga nima to'sqinlik qilishi va nima ularni kuchaytirishi (bu psixologik muammo).

Ikkinchi muammoga ko'pincha yetarlicha e'tibor berilmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hatto eng samarali metod ham pedagogik to'siqlar bartaraf etilmagan, tezaurus kengaytirilmagan va interakSION muhit sifati oshirilmagan sharoitda kutilgan natijani bermaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi – kontrsuggestiv, tezaurus va interakSION omillarning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'sir mexanizmini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tizimli tahlil qilish va EFL kontekstiga moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: uchta omilning – kontrsuggestiv, tezaurus va interakSION omillarning – pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'siri va ularning o'zaro kuchaytiruvchi mexanizmi birinchi marta yaxlit integratsion model sifatida taqdim etilmoqda; ushbu model O'zbekistonning EFL o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida ilk bor asoslanmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari tahlil qilindi. G. Lozanov suggestopediya nazariyasida kontrsuggestiv to'siqlar muammosini birinchi bo'lib ko'targan bo'lsa ^[1], E. F. Zeyer va J. G'. Yo'ldoshev kasbiy tezaurus tushunchasini pedagogik faoliyat kontekstida asoslab berganlar ^[4; 5].

J. P. Spillane distributiv liderlik nazariyasi orqali interaksion omillarning liderlik shakllanishidagi rolini ko'rsatgan ^[9], L. S. Vygotskiy esa "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi orqali bilim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni asoslagan ^[10].

N. N. Azizxo'jayeva, O. Musurmonova, Sh. Shodmonova, N. Egamberdiyeva kabi mahalliy tadqiqotchilar esa ushbu omillarni O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitida tadqiq etishgan ^[2; 3; 6; 7].

Miftah va boshqalar (2025) tanqidiy refleksiya amaliyotining EFL kontekstidagi ta'sirini empirik jihatdan isbotlagan ^[8], D. W. Johnson va boshqalar esa kooperativ o'qitish tamoyillari asosida shakllangan interaksioning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatgan.

Shu bilan birga, mazkur uch omilni yaxlit integratsion tizim sifatida ko'rib chiqqan tadqiqotlar deyarli uchramaydi, bu esa mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash va sintez metodlaridan foydalanildi. Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarga oid xorijiy va mahalliy manbalar tizimli ravishda tahlil qilindi, ularning umumiy va farqli jihatlari qiyosiy usulda aniqlandi. Olingan natijalar asosida uchta omilning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi integratsion model muallif tomonidan sintez qilindi va jadval ko'rinishida tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kontrsuggestiv omillar: liderlik rolini qabul qilishga to'siqlar Kontrsuggestiya tushunchasi

Bolgar olimi Georgi Lozanov suggestopediya nazariyasida kontrsuggestiv to'siqlarni uch turga ajratdi: mantiqiy-kritik (yangi g'oyalarni tanqidiy rad etish), etik-estetik (qadriyatlarga mos kelmaydigan narsalarni qabul qilmaslik), intuitiv-affektiv (qo'rquv va noaniqlikka asoslangan hissiy to'siqlar) ^[1].

Pedagogik liderlik kontekstida bu uch to'siq o'qituvchining liderlik rolini o'z zimmasiga olishdan qo'rqishi, hamkasblar fikridan haddan tashqari ta'sirlanishi va "lider bo'lishga layoqatim yo'q" degan noto'g'ri o'z-o'zini baholashi sifatida namoyon bo'ladi. N. N. Azizxo'jayeva O'zbekiston oliy ta'lim muhitida o'tkazgan tadqiqotlarida talabalarning liderlik rolini qabul qilishdan qochish holatlari asosan "o'qituvchi – bilim manbai, talaba – qabul qiluvchi" stereotipi bilan bog'liqligini aniqladi ^[2].

Bu stereotip – kuchli kontrsuggestiv to'siq – talabalarning liderlik tashabbusini ko'rsatishiga monelik qiluvchi eng muhim psixologik omil hisoblanadi. O. Musurmonova simulyatsion va rolli o'yinlar metodlarini qo'llash orqali ushbu to'siqlarni muvaffaqiyatli bartaraf etish mumkinligini eksperimental jihatdan isbotlagan ^[3].

Kontrsuggestiv to'siqlarning bartaraf etilishi uchta shart-sharoitni talab etadi.

Birinchi shart – psixologik xavfsizlik muhiti: xato qilish, yangi g'oya taklif qilish va liderlik rolini sinab ko'rish uchun jazolanmaydigan muhit yaratish.

Ikkinchi shart – bosqichli liderlik rollari: kichik, boshqariladigan liderlik vaziyatlaridan boshlab, murakkablashib boruvchi liderlik funksiyalariga o'tish.

Uchinchi shart – ijobiy kuchaytirish: liderlik tashabbusini ko'rsatgan talabaga tengdoshlar va o'qituvchi tomonidan konstruktiv va ijobiy munosabat bildirish.

Miftah va boshqalar (2025) EFL muhitida tanqidiy refleksiya amaliyoti liderlik rolini qabul qilishga psixologik tayyorlikni sezilarli darajada oshirishini empirik jihatdan isbotlagan ^[8].

Tezaurus omillari: liderlik uchun kognitiv poydevor Tezaurus va kasbiy kompetentlik.

E. F. Zeyer kasbiy tezaurusni "mutaxassisning kasbiy faoliyatida faol qo'llaydigan tizimli va o'zaro bog'liq bilimlar, tushunchalar, sxemalar va tafakkur kategoriyalari majmuasi" sifatida ta'riflaydi ^[4].

J. G'. Yo'ldoshev ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasida pedagog tezaurusining kengayib borishi bilan uning muammolari hal etish qobiliyati o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik borligini asoslab bergan ^[5].

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining liderlik kompetensiyalariga bevosita ta'sir etuvchi tezaurus to'rtta o'zaro bog'liq qatlamdan iborat:

- **lingvistik tezaurus** – til tizimi, lingvistika va kommunikativ kompetensiya bo'yicha tizimli bilimlar;
- **metodologik tezaurus** – o'qitish metodlari, pedagogika va ta'lim texnologiyalari bo'yicha bilimlar;



- **madaniy tezaurus** – madaniyatlararo bilimlar, sotsiologik va etik tushunchalar;
- **liderlik tezaurusi** – pedagogik liderlik nazariyalari, kompetensiya modellari va liderlik psixologiyasiga doir bilimlar.

Ushbu to'rt qatlamning uyg'un rivojlanishi EFL o'qituvchisining liderlik kompetensiyalarini amalda samarali qo'llashini ta'minlaydi. Lozanov suggestopediya nazariyasida tezaurusni kengaytirish o'quv jarayonini yanada mazmunli, motivatsion jihatdan yuqori va psixologik to'siqlardan xoli qilishga xizmat qilishini ko'rsatgan ^[1].

L. S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, o'qituvchi talabani uning hozirgi bilim darajasidan biroz yuqori – lekin erishish mumkin bo'lgan – darajadagi vazifalarga yo'naltirish orqali tezaurusni va liderlik salohiyatini birgalikda rivojlantiradi ^[10].

Sh. Shodmonova mahalliy tadqiqotida bilimlar bazasining kengayishi kreativlik va liderlik faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini O'zbekiston talabalari namunaviy guruhi misolida isbotlagan ^[6].

Interaksion omillar: liderlik muhiti sifati Interaksion omillar mohiyati

Interaksion omillar – pedagogik jarayondagi o'zaro ta'sirning sifati, chuqurligi va yo'nalishini belgilovchi omillar majmuidir. Ular uchta asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: vertikal interaksiya (o'qituvchi va talaba o'rtasida), gorizontalar interaksiya (talabalar o'rtasida) va kontekstual interaksiya (talaba va ta'lim muhiti o'rtasida).

J. P. Spillane distributiv liderlik nazariyasida liderlik funksiyalari aynan gorizontalar interaksiya jarayonida – barcha a'zolar teng ishtirokida – eng samarali shakllanishini asoslagan ^[9].

N. Egamberdiyeva bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligi bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida interaksion muhit sifati liderlik kompetensiyasi shakllanishining eng kuchli prediktori sifatida aniqlangan ^[7].

OECD TALIS 2024 ma'lumotlari esa muassasa miqyosida yuqori sifatli o'qituvchi-talaba interaksiyasi ta'minlangan muhitlarda o'quvchi natijalari va o'qituvchi liderlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori ekanligini 48 mamlakatda ko'rsatgan.

EFL o'qituvchisi tayyorgarligi uchun interaksion muhitni maqsadli rivojlantirish uchta yo'nalishda amalga oshirilishi zarur.

Birinchi yo'nalish – **muloqot sifatini oshirish**: talabalar o'zaro fikr almashadigan, bahslashadigan va birgalikda qarorlar qabul qiladigan vaziyatlarni ko'paytirishni ta'minlash.

Ikkinchi yo'nalish – **hamkorlik tizimi**: guruh a'zolari bir-birining muvaffaqiyati uchun javobgar bo'lgan tuzilmaviy guruhiiy loyihalarni qo'llash.

Uchinchi yo'nalish – **tengdosh o'qitish**: talabalar bir-biriga dars berishi orqali muloqot, tashkilotchilik va kognitiv refleksiya ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish.

D. W. Johnson va boshqalar kooperativ o'qitishning besh tamoyili asosida qurilgan interaksiya liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali kontekstualizatsiyalangan metodlaridan biri ekanligini empirik jihatdan isbotlagan. Uchta omilning integratsion modeli Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillar bir-biridan mustaqil ravishda emas, balki o'zaro aloqadorlikda va kuchaytiruvchi tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Muallif tomonidan taklif etilgan integratsion modelda ushbu uch omil quyidagi munosabatda ko'rinadi:

- kontrsuggestiv to'siqlarning bartaraf etilishi tezaurusni erkin kengaytirish imkonini yaratadi;
- kengaygan tezaurus interaksion jarayonlarni mazmunliroq va liderlik imkoniyatlariga boyroq qiladi;
- sifatli interaksiya esa yangi kontrsuggestiv to'siqlarning oldini oluvchi psixologik xavfsizlik muhitini mustahkamlaydi.

Bu siklik munosabat pedagogik liderlik kompetensiyalarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

1-jadval: Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarning pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'sir mexanizmi va rivojlantirish yo'llari (muallif tahlili)

Omil nomi	Psixologik mohiyati	Pedagogik liderlikka ta'siri	Bartaraf etish / kuchaytirish yo'li
Kontrsuggestiv omillar	O'rganuvchining yangi bilim, ko'nikma va rollarni o'zlashtirishiga ichki va tashqi to'siqlar: mantiqiy-kritik, etik-estetik va intuitiv-affektiv to'siqlar tizimi	Liderlik rolini qabul qilishdan psixologik qochish; tashabbuskorlikning so'nishi; guruhda passiv pozitsiya saqlash	Xavfsiz pedagogik muhit yaratish; bosqichli liderlik rollari berish; refleksiv amaliyot; tengdosh o'qitish



Tezaurus omillari	Shaxsning kasbiy bilimlar, tushunchalar va tafakkur kategoriyalari tizimi – kognitiv liderlikning poydevori	Keng tezaurusli o'qituvchi muammolarga yangicha yechim topadi; liderlik g'oyalari kognitiv resurslar orqali asoslay oladi	Tizimli o'qish; konseptual xaritalash; adabiyotlar tahlili; liderlik tezaurusini alohida rivojlantirish
Interaksion omillar	Pedagogik jarayondagi o'zaro ta'sir sifati: o'qituvchi-talaba, talaba-talaba va talaba-muhit interaksionalining xarakteri	Yuqori sifatli interaksiya liderlik ko'nikmalarini kundalik amaliyotda tabiiy shakllantiradi; sinfni boshqarish tajribasi beradi	Kooperativ o'qitish; peer-teaching; guruhiiy loyihalar; munozara va rolli o'yinlar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har uch omil liderlik kompetensiyalarining turli bloklariga ta'sir ko'rsatadi, biroq ularning umumiy ta'siri qo'shimcha emas, balki multiplikativ xarakter kasb etadi. Ya'ni, uchta omil bir vaqtda, maqsadga yo'naltirilgan holda rivojlantirilganda, ularning yig'indi ta'siri har birini alohida rivojlantirishdan sezilarli darajada kuchli bo'ladi. Bu psixologik haqiqat ta'lim jarayonini loyihalashda uchala omilni parallel va izchil ravishda ko'rib chiqishni metodologik jihatdan zarur qiladi.

O'. Q. Tolipov ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonining samaradorligi faqat metodlarning to'g'ri tanlanishiga emas, balki talabaning ushbu metodlarni qabul qilishga psixologik, kognitiv va ijtimoiy jihatdan tayyor bo'lishiga ham bog'liqdir ^[11].

N. A. Muslimov kasbiy shakllanish tadqiqotlarida pedagogning o'z kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashda aynan ushbu uch omilning – to'siqlarni yengish, bilimlarni kengaytirish va sifatli muloqotda qatnashish – uyg'un birligi markaziy o'rin egallashini ko'rsatgan ^[12].

A. H. Maslow "o'z-o'zini ro'yobga chiqarish" konsepsiyasida ham aynan shu uch shart – xavfsizlik, bilim va muloqot – o'z salohiyatini to'liq amalga oshirishning psixologik talabi sifatida belgilangan.

XULOSA

Birinch xulosa. Kontrsuggestiv to'siqlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining liderlik rolini qabul qilishiga sezilarli to'sqinlik qiladi. Ularni bartaraf etish psixologik xavfsizlik muhiti yaratish, bosqichli liderlik rollarini berish va ijobiy kuchaytirish orqali maqsadli amalga oshirilishi lozim. Hatto metodlar to'g'ri tanlangan taqdirda ham, kontrsuggestiv to'siqlar bartaraf etilmasa, liderlik kompetensiyalari rivojlanmaydi.

Ikkinchi xulosa. Tezaurus omili liderlik kompetensiyalarining kognitiv poydevori hisoblanadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining lingvistik, metodologik, madaniy va liderlik tezauruslarini parallel rivojlantirish uning liderlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tezaurusni kengaytirish uchun chuqur va tizimli o'qish, adabiyotlar tahlili va konseptual xaritalash metodlari tavsiya etiladi.

Uchinchi xulosa. Interaksion muhit sifati liderlik kompetensiyalarini kundalik amaliyotda tabiiy shakllantiradi. EFL darslarining o'z tabiatiga ko'ra interaktiv xarakteri ingliz tili o'qituvchisi uchun bu imkoniyatni boshqa fanlar o'qituvchilariga nisbatan kuchliroq yaratadi. Kooperativ o'qitish, peer-teaching va guruhiiy loyihalar interaksion sifatini oshirishning samarali vositalari hisoblanadi.

To'rtinchi xulosa. Uchta omil – kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion – integratsion siklik tizimni tashkil etib, ularning parallel va izchil rivojlantirilishi pedagogik liderlik kompetensiyalarining barqaror va ko'p qirrali shakllanishini ta'minlaydi. Ushbu integratsion model dissertatsiyaning integrallashgan metodik tizimini loyihalashtirishda asosiy psixologik-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lozanov G. Suggestology and Outlines of Suggestopediy. – New York: Gordon and Breach, 1978. – 338 p.
2. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 174 b.
3. Musurmonova O. Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2014. – 192 b.
4. Zeyer E. F. Psixologiya professiy. – 4-e izd. – Moskva: Akademicheskii proekt, 2006. – 336 s.
5. Yo'ldoshev J. G'. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 312 b.
6. Shodmonova Sh. Talabalarining kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar // Pedagogik ta'lim. – 2018. – № 3. – B. 44–48.
7. Egamberdiyeva N. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligi. – Toshkent: TDPU, 2019. – 208 b.
8. Miftah M. Z. et al. Exploring Critical Reflection to Develop Pedagogical Competence for Indonesian EFL Preservice Teachers // Education and Self Development. – 2025. – Vol. 20, № 1. – P. 27–41. – doi: 10.26907/esd.20.1.03.
9. Spillane J. P. Distributed Leadership. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006. – 136 p.
10. Vygotsky L. S. Imagination and Creativity in Childhood // Journal of Russian and East European Psychology. – 2004. – Vol. 42, № 1. – P. 7–97.



11. Tolipov O'. Q. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 480 b.
12. Muslimov N. A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 210 b.
13. Ghamrawi N., Shal T., Abu-Tineh A. Unleashing the potential of teacher leadership for ESD // Frontiers in Education. – 2025. – Vol. 10. – doi: 10.3389/feduc.2025.1614623.
14. Huang J. et al. The role of leadership in collective creativity and innovation // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Art. 1060412. – doi: 10.3389/fpsyg.2022.1060412.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. – Toshkent, 2022. – lex.uz/docs/5841063.
16. Sayidahmedov N. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 320 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.